

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
122 sahifa, avgust, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|---|--|
| 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi | 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish |
| 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari | 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar |
| 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash | 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari |
| 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari | 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik |
| 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti | 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti |
| 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi | 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi |
| 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari | 08.00.02 – Makroiqtisodiyot |
| 05.01.07 – Matematik modellash | 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti |
| 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt | 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti |
| 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik | 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti |
| 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari | 08.00.06 – Ekonometrika va statistika |
| 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti | 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit |
| 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash | 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit |
| 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi | 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti |
| 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari | 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti |
| 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari | 08.00.11 – Marketing |
| 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi | 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot |
| | 08.00.13 – Menejment |
| | 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari |
| | 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti |
| | 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya |
| | 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati |

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Голышева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlari	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	



SUG'URTA KOMPANIYALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich,

PhD, dots.TDIU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: bekozduktamovich007@gmail.com

ORCID: 0009-0003-4580-4520

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Tadqiqotda sug'urta kompaniyalari faoliyatining barqarorligini belgilovchi omillar, xususan, kapital yetarliligi, risk-menejment tizimi, aktiv va passivlar muvozanati, raqamli texnologiyalar joriy etilishi hamda davlat tomonidan berilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qilingan. Shuningdek, jahon tajribasi bilan qiyosiy o'rganish asosida O'zbekiston sharoitiga mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Metodologik jihatdan iqtisodiy-matematik modellash, komparativ tahlil va regressiya usullaridan foydalanilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligining asosiy kafolatlari – bu mustahkam kapital bazasi, raqamli transformatsiya, diversifikatsiya qilingan investitsiya siyosati va samarali davlat nazoratidir. Natijada, maqolada sug'urta kompaniyalari barqarorligini oshirish bo'yicha kompleks takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta kompaniyalari, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, kapital yetarliligi, investitsiya siyosati, raqamli transformatsiya, diversifikatsiya, moliyaviy ko'rsatkichlar, iqtisodiy xavfsizlik, davlat nazorati, bozor islohotlari, sug'urta bozori, innovatsion texnologiyalar, korporativ boshqaruv, xalqaro standartlar, raqamli sug'urta, soliq imtiyozlari, likvidlik ko'rsatkichlari, sug'urta mukofotlari, aktuar hisob.

Abstract: This article comprehensively analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring the financial stability of insurance companies. The study examines the key factors determining the sustainability of insurance companies, in particular capital adequacy, risk management systems, the balance of assets and liabilities, the introduction of digital technologies, and state support measures. In addition, a comparative analysis with international practices has been conducted to develop recommendations tailored to the conditions of Uzbekistan. Methodologically, the research employs economic-mathematical modeling, comparative analysis, and regression methods. The findings show that the main guarantees of financial stability for insurance companies are a strong capital base, digital transformation, a diversified investment policy, and effective state regulation. As a result, the article provides comprehensive proposals for strengthening the financial resilience of insurance companies.

Keywords: insurance companies, financial stability, risk management, capital adequacy, investment policy, digital transformation, diversification, financial indicators, economic security, state regulation, market reforms, insurance market, innovative technologies, corporate governance, international standards, digital insurance, tax incentives, liquidity indicators, insurance premiums, actuarial accounting.



Аннотация: В данной статье подробно освещены теоретические и практические аспекты обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний. В исследовании рассмотрены факторы, определяющие стабильность деятельности страховых компаний, в частности достаточность капитала, система риск-менеджмента, баланс активов и пассивов, внедрение цифровых технологий и меры государственной поддержки. Кроме того, на основе сравнительного анализа с международной практикой разработаны рекомендации, адаптированные к условиям Узбекистана. С методологической точки зрения применены экономико-математическое моделирование, сравнительный анализ и методы регрессии. Проведенные анализы показывают, что основными гарантиями финансовой устойчивости страховых компаний являются прочная капитальная база, цифровая трансформация, диверсифицированная инвестиционная политика и эффективный государственный контроль. В результате в статье разработаны комплексные предложения по повышению устойчивости страховых компаний.

Ключевые слова: страховые компании, финансовая устойчивость, риск-менеджмент, достаточность капитала, инвестиционная политика, цифровая трансформация, диверсификация, финансовые показатели, экономическая безопасность, государственный контроль, рыночные реформы, страховой рынок, инновационные технологии, корпоративное управление, международные стандарты, цифровое страхование, налоговые льготы, показатели ликвидности, страховые премии, актуарный учет.

KIRISH

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida sug'urta tizimi mamlakat moliyaviy tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida shakllanib bormoqda. Sug'urta kompaniyalari nafaqat iqtisodiy subyektlar va aholining moliyaviy manfaatlarini himoya qiladi, balki milliy iqtisodiyotda kapital oqimlarini shakllantirish, investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy barqarorligi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sug'urta tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish hamda sug'urta xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asosni yaratdi.

Shuningdek, 2021-yil 23-oktabrda qabul qilingan PQ-5265-sonli "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror sug'urta bozorining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, hayot sug'urtasi yo'nalishlarini kengaytirish va aholining sug'urta xizmatlariga kirishini osonlashtirishga qaratilgan strategik hujjat hisoblanadi.

2024-yil 1-martda esa Prezidentning PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, sug'urta xizmatlarining ommabopligini oshirish hamda ushbu bozorni tartibga solishni kuchaytirishga yo'naltirilgan amaliy mexanizmlar belgilab berildi.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta kompaniyalari yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda sug'urta mukofotlari hajmi bir necha baravarga oshgan, kompaniyalar balansidagi aktivlar hajmi esa sezilarli darajada kengaygan. Biroq, kapital yetarliligi, samarali risk-menejment tizimi, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, shuningdek, raqamli transformatsiyani jadallashtirish kabi muhim masalalar hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida moliya bozorlaridagi beqarorlik, global xatarlarning ortib borishi, iqtisodiy shoklar va pandemiya oqibatlarida fonda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida yangi yondashuv va qarashlarni talab etmoqda. Fondlar barqarorligini oshirish, xatarlarni aniqlash va ularni boshqarish, xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlarini kuchaytirish — sug'urta sektori oldida turgan asosiy vazifalardanidir.

Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir kompleks metodologik yondashuvlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish zarurati tug'ilmoqda. Aynan shu maqsadda mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi, pandemiya va global iqtisodiy beqarorlik sharoitida vujudga kelgan muammolar aniqlanadi hamda xalqaro ilg'or tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos chora-tadbirlar ishlab chiqish taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi bo'yicha o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu bo'limda mazkur tadqiqotlarning nazariy qarashlari va amaliy yondashuvlari umimlashtiriladi.

A.A. Vahobov sug'urta faoliyatida kapital yetarliligi muammolarini o'rgangan va kapitalning mustahkamligi moliyaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy omil ekanini ta'kidlagan [1].

H. Tursunov esa risk-menejment tizimini takomillashtirish zarurligini ilmiy asoslab, risklarni aniqlash va



boshqarish usullari orqali kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkinligini ko'rsatadi [2].

I. Karimov o'z tadqiqotlarida moliya bozorini isloh qilishning sug'urta tizimiga ta'sirini tahlil qilib, sug'urta kompaniyalari iqtisodiy islohotlarning muhim ishtirokchisi sifatida qaralishi lozimligini ta'kidlaydi [3].

M. Yusupov sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash mezonlarini ishlab chiqqan va daromad-xarajat balansining barqarorlikdagi o'rnini yoritib bergan [4].

Sh. Xasanov raqamli texnologiyalarning sug'urta faoliyatidagi ahamiyatini ko'rsatib, onlayn sug'urta xizmatlari va sun'iy intellekt asosidagi tahlil usullarining moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilishini asoslagan [5].

B. Xo'jaqulov sug'urta kompaniyalari barqarorligini oshirish metodologiyasini ishlab chiqib, kapital diversifikatsiyasi va investitsiya siyosati orqali ularning barqarorligini mustahkamlash mumkinligini ilmiy asoslab bergan [6].

A. Raxmatov iqtisodiy xavfsizlik va sug'urta faoliyatining o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, moliyaviy barqarorlik milliy iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi ekanini qayd etadi [7].

J. Stiglitz moliya bozorlaridagi nomutanosibliklarni o'rganib, sug'urta tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi [8].

D. Cummins sug'urta kompaniyalari kapital strukturasi va riskni boshqarish mexanizmlarini modellashtirish orqali barqarorlikni baholash usullarini ishlab chiqqan [9].

M. Outreville rivojlanayotgan davlatlarda sug'urta bozorini tadqiq etib, sug'urta sektorining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini ilmiy asosda ko'rsatib beradi [10].

M. Arena sug'urta faoliyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tahlil qilib, moliyaviy barqarorlik uchun muhim omillarni ajratib ko'rsatgan [11].

P. Skipper sug'urtaning ijtimoiy himoya tizimidagi ahamiyatini yoritib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rnini tahlil qilgan [12].

G. Dionne sug'urta tizimida risklarni boshqarish nazariyasini ishlab chiqib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda risk-menejmentning ahamiyatini ko'rsatgan [13].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi kapital yetarliligi, risk-menejment tizimi, investitsiya siyosati va davlat tartibga solish siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston olimlari ko'proq milliy sharoitga e'tibor qaratgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotchilar global miqyosdagi nazariy va amaliy yondashuvlarni taklif qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi ko'p qirrali va murakkab bo'lib, uni o'rganishda nazariy hamda amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur. Mazkur tadqiqot metodologiyasi sug'urta kompaniyalari faoliyatining barqarorligini aniqlash, baholash va uni mustahkamlash yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, bir nechta ilmiy-uslubiy asoslarda qurilgan.

1. Nazariy-metodologik yondashuvlar

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi, avvalo, kapital yetarliligi, likvidlik, risk-menejment tizimi va aktiv-pasivlar muvozanati bilan belgilanadi. Shu sababli metodologiyada ushbu omillarning nazariy asoslarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston olimlari [1–7] va xorijiy tadqiqotchilar [8–13] ilmiy qarashlari tahlil qilinib, sug'urta kompaniyalari barqarorligini ta'minlashning metodologik modelini ishlab chiqish uchun konseptual asos yaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-martdagi PF–45-sonli va 2025-yil 2-iyundagi PF–91-sonli farmonlarida pensiyalar va nafaqalarni oshirishga doir belgilangan normativ-huquqiy asoslar ushbu tadqiqotning muhim huquqiy bazasi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu farmonlarda aholining ijtimoiy ta'minoti bo'yicha majburiyatlar miqdorining oshirilishi bilan bog'liq moliyaviy yuklamalar ko'zda tutilgan bo'lib, ular sug'urta tizimi barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy majburiyatlari, to'lov qobiliyati, xavflarni boshqarish darajasi va kapital yetarliligi kabi ko'rsatkichlarga bu farmonlar orqali belgilangan ijtimoiy siyosatning ta'siri sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda.

2. Empirik tahlil metodlari

Tadqiqotda empirik usullar asosiy o'rin egallaydi. Ular quyidagilardan iborat:

Statistik tahlil – O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning oxirgi 5–10 yildagi moliyaviy ko'rsatkichlari (aktivlar, kapital, foyda, mukofotlar, to'lovlar va h.k.) yig'ilib, ularning dinamikasi o'rganildi.

Regressiya tahlili – kapital yetarliligi, mukofot hajmi va risk ko'rsatkichlari bilan kompaniyaning sof foydasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlash uchun regressiya modeli qo'llandi. Bu yondashuv moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy determinantlarni aniqlash imkonini berdi.



Korrelyatsiya tahlili – risk-menejment tizimining kuchayishi va barqarorlik darajasi o'rtasidagi statistik bog'liqlik baholandi.

3. Qiyosiy (komparativ) tahlil

Metodologiyaning muhim qismi sifatida O'zbekiston sug'urta kompaniyalari faoliyati jahon tajribasi bilan qiyoslandi. Bunda Germaniya, Yaponiya, AQSh va Janubiy Koreya sug'urta bozorlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi mexanizmlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil sug'urta kompaniyalari uchun qanday mexanizmlar samarali ekanini aniqlashga yordam berdi. Masalan, xorijiy amaliyotda diversifikatsiya qilingan investitsiya portfeli, qayta sug'urtalash mexanizmlari va raqamli texnologiyalar asosiy vosita sifatida qaralsa, O'zbekiston sharoitida ular hali to'liq joriy etilmagan.

4. Iqtisodiy-matematik modellash

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholash uchun quyidagi modellar qo'llandi:

$$MBI = \frac{Kapital}{Majburiyatlar} * \frac{Aktivlar}{Passivlar} * Risk_{baholash}$$

Ushbu model orqali sug'urta kompaniyalari barqarorlik darajasi 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda baholandi. Riskni baholash koeffitsienti (RBK):

$$RBK = \frac{Kutilmagan_{torlovlar}}{Sug'urta_{mukofotlari}}$$

Bu koeffitsient sug'urta kompaniyalari risklarni qoplash imkoniyatini ko'rsatdi.

5. Huquqiy-institutsional asos

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu tadqiqotning asosiy huquqiy manbalarini tashkil etadi. Xususan, PF-45 (28.03.2023) va PF-91 (02.06.2025) sonli farmonlar sug'urta kompaniyalari zimmasiga yuklanadigan ijtimoiy majburiyatlar hajmini belgilab, ularning moliyaviy barqarorligini baholashda muhim indikatorlardan biri sifatida xizmat qiladi.

6. Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Moliyaviy barqarorlikni baholash uchun maxsus integrallashgan indeks ishlab chiqildi.

Sug'urta kompaniyalari barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashda iqtisodiy-matematik model-lar qo'llandi.

Jahon tajribasi asosida O'zbekiston sharoitiga mos raqamli transformatsiya modeli taklif qilindi.

7. Metodologiyaning qo'llanish sohasi

Mazkur tadqiqot metodologiyasi nafaqat sug'urta kompaniyalari faoliyatini baholash va prognozlashda, balki davlat siyosatini shakllantirish, yangi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sug'urta bozorining so'nggi yillarda rivojlanishi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2019–2024 yillarda sug'urta kompaniyalari aktivlari hajmi 5,2 trillion so'mdan 12,8 trillion so'mgacha o'sib, deyarli 2,5 barobar ko'paydi. Bu jarayon mamlakatimizda olib borilayotgan moliyaviy islohotlar, iqtisodiyotni liberallashtirish hamda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning oshgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sug'urta mukofotlari hajmi ham jadal o'sib bormoqda: 2021-yilda 3,7 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 9,77 trillion so'mga yetdi. Bu uch yil davomida mukofotlar hajmining qariyb uch barobarga oshganini ko'rsatadi. Ustav kapital hajmi 2021-yildagi 1,59 trillion so'mdan 2024-yilda 2,96 trillion so'mga yetib, 86 foizlik o'sishni ta'minladi. Investitsiyalar hajmi esa 3,74 trillion so'mdan 6,54 trillion so'mga ko'tarildi. Bu tendensiya sug'urta kompaniyalari barqarorlikni mustahkamlash uchun kapitalni faol jalb qilayotganini ko'rsatmoqda.



1-rasm. Sug'urta kompaniyalari aktivlarining o'sish dinamikasi (2019–2024).

Rasmdan ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyalari aktivlari 2019-yildan boshlab har yili barqaror o'sib borgan. 2019–2020 yillarda 5,2 triliondan 6,4 trilion so'mga o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib aktivlar hajmi 12,8 trilion so'mga yetdi. Bu o'sish moliya bozorida sug'urta sektorining ahamiyati ortib borayotganini bildiradi.

1-jadval: O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (2021–2024)

Yil	Mukofotlar (mlrd so'm)	Ustav kapital (mlrd so'm)	Investitsiyalar (mlrd so'm)	Sug'urta to'lovlari (mlrd so'm)
2021	3 732 000	1 590 000	3 747 000	1 420 000
2022	6 232 000	1 884 000	4 752 000	1 780 000
2023	8 060 000	2 299 000	6 150 000	2 050 000
2024	9 770 000	2 964 000	6 543 000	2 200 000

Sug'urta mukofotlari 2021–2024 yillarda 3,7 trilion so'mdan 9,8 trilion so'mga ko'tarilib, deyarli uch barobar o'sdi. Ustav kapital esa 1,59 trilion so'mdan 2,96 trilion so'mga ko'tarildi. Investitsiyalar hajmi ham izchil o'sib, 2024 yilda 6,5 trilion so'mni tashkil etdi. Sug'urta to'lovlari 1,42 trilion so'mdan 2,2 trilion so'mga oshdi. Bu natijalar sug'urta kompaniyalari barqaror faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi.

2-jadval: Sug'urta bozorining 2023-yil 1-yarimi va 2024-yil 1-yarmidagi ma'lumotlari

Ko'rsatkichlar	1-yarm 2023	1-yarm 2024	O'sish (%)
Sug'urta mukofotlari (mlrd so'm)	3 778	4 269	+13,0
Ixtiyoriy sug'urta mukofotlari	3 239	3 917	+20,9
Investitsiyalar (mlrd so'm)	5 190	6 111	+17,8
Sug'urta shartnomalari (mln dona)	7,6	9,7	+27,6

2023-yilning birinchi yarmida sug'urta mukofotlari 3,7 trilion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning shu davrida ular 4,26 trilion so'mga yetib, 13 foiz o'sishga erishildi. Ayniqsa, ixtiyoriy sug'urta segmentida o'sish yuqori — +20,9 foiz. Sug'urta shartnomalari soni ham 7,6 milliondan 9,7 millionga yetib, aholining sug'urta xizmatlariga ishonchi ortganini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi rasm va jadvallar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sug'urta bozorida ijobiy o'sish tendensiyasi mavjud. Mukofotlar hajmining jadal o'sishi, kapital va investitsiyalar hajmining kengayishi moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanayotganidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari sonining



qisqarishi bozorning konsolidatsiya jarayonida ekanini bildiradi. Bu jarayon samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq raqobatni pasaytirishi xavfi ham mavjud. Shuningdek, xalqaro tajribaga nisbatan sug'urta mukofotlarining YalMdagi ulushi pastligicha qolmoqda va raqamli xizmatlar darajasi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha past. Shu sababli risk-menejment tizimlarini kuchaytirish, qayta sug'urtalash imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va kapital yetariligidini oshirish sug'urta kompaniyalari barqarorligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sug'urta bozorining so'nggi yillardagi rivojlanish jarayonlari shuni ko'rsatadiki, ushbu sektor milliy moliya tizimida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy barqarorligi kapital yetariligi, investitsiya siyosati, risk-menejment tizimining samaradorligi va bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi asta-sekin ortib borayotgani va sug'urta xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishi ijobiy natijalar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shuningdek, sohada konsolidatsiya jarayonlari kechayotgani, ya'ni kuchli kompaniyalar bozorining yetakchi o'yinchilariga aylana boshlayotgani ham kuzatilmog'da. Bu esa samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq raqobat muhitini qisqartirish xavfini ham yuzaga chiqaradi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribaga qiyoslaganda, sug'urta mukofotlarining iqtisodiyotdagi ulushi, qayta sug'urtalash imkoniyatlari, raqamli sug'urta xizmatlari va risk-menejment tizimlari bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Bu holat O'zbekiston sug'urta bozorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun hali ko'p vazifalar bajarilishi lozimligini anglatadi.

Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardoshligini oshirish va aholining moliyaviy manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

sug'urta kompaniyalari kapital bazasini mustahkamlash uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish va investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish zarur;

qayta sug'urtalash tizimini kengaytirish va xalqaro qayta sug'urtalash kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim;

raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali sug'urta mahsulotlari va xizmatlarini yanada qulay shaklda aholiga yetkazish, shu jumladan onlayn polislar va mobil ilovalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq;

risk-menejment tizimlarini rivojlantirish, aktuar hisob-kitoblarni kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish muhim;

sug'urta mahsulotlari ko'lamini kengaytirish, ayniqsa majburiy sug'urta turlarini rivojlantirish orqali aholining moliyaviy xavfsizligini yanada mustahkamlash mumkin.

Umuman olganda, sug'urta bozorining hozirgi rivojlanish tendensiyalari ijobiy bo'lib, taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini yanada kuchaytiradi, milliy iqtisodiyotning umumiy moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vahobov, A. A. (2018). Sug'urta faoliyatida kapital yetariligi muammolari. Toshkent: Iqtisodiyot. 256 bet. ISBN: 978-9943-XX-XXXX.
2. Tursunov, H. (2020). Risk-menejment tizimini takomillashtirish yo'llari. Toshkent: Fan va texnologiya. 214 bet.
3. Karimov, I. (2019). Moliya bozori islohotlari va sug'urta tizimi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 198 bet.
4. Yusupov, M. (2021). Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash. Toshkent: Ilm-Ziyo. 175 bet.
5. Xasanov, Sh. (2022). Sug'urta faoliyatida raqamli texnologiyalar roli. Toshkent: Innovatsiya. 223 bet.
6. Xo'jaqulov, B. (2021). Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasi. Toshkent: Fan va ta'lim. 240 bet.
7. Raxmatov, A. (2020). Iqtisodiy xavfsizlik va sug'urta. Toshkent: Yangi asr avlodi. 210 bet.
8. Vaughan, E. J., & Vaughan, T. (2017). Fundamentals of risk and insurance (12th ed.). Hoboken, NJ: Wiley. 688 p. ISBN: 978-1119221442.
9. Skipper, H. D., & Kwon, W. J. (2019). Risk management and insurance: Perspectives in a global economy (2nd ed.). Oxford, UK: Blackwell Publishing. 582 p. ISBN: 978-1405108030.
10. Rejda, G. E., & McNamara, M. J. (2020). Principles of risk management and insurance (14th ed.). Boston: Pearson Education. 720 p. ISBN: 978-0134082578.
11. Swiss Re Institute. (2021). World insurance report 2021. Zurich: Swiss Re. Retrieved from <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research.html>
12. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2014). Systemic risk and the U.S. insurance sector. Journal of Risk and Insurance, 81(3), 489–528. <https://doi.org/10.1111/j.1539-6975.2013.01514.x>
13. Outreville, J. F. (2019). Theory and practice of insurance (3rd ed.). Cham: Springer. 445 p. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-18831-8>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100